



GIBRID O'QITISH MODELI DOIRASIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI

Dusbekova Umida Bahodir qizi

Qoraqalpog'iston Respublikasi 40-sonli maktab

Boshlang'ich sinfo 'qituvchisi

E-mail: umida.dosbekova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gibrid o'qitish modeli doirasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda eksperimental va nazorat guruhlarini ishtirokida aralash metod (mixed methods) yondashuvi asosida so'rovnoma, intervyu, kuzatuv metodlari va gibrid ta'limdagi kommunikatsiya, raqamli kompetensiya va interaktivlik omillari o'rganilgan. Natijalarda gibrid modelda o'qituvchi-o'quvchi o'zaro ta'siri o'quvchilarning faolligi, motivatsiya va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini oshirishda muhim ro'l o'ynashi isbotlangan. Gibrid o'qitish modeli an'anaviy va raqamli yondashuvlarning integratsiyasiga asoslangan holda zamonaviy ta'limda ta'sirchan uslub sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Gibrid ta'lim, raqamli pedagogika, sinxron va asinxron muloqot, raqamli kompetensiya, interaktivlik.

Аннотация: В данном исследовании рассматриваются особенности и эффективность взаимодействия учителя и ученика в рамках гибридной модели обучения. Используя смешанный подход, включающий опросы, интервью и наблюдения за учебными процессами как с экспериментальной, так и с контрольной группами, исследование изучает способы коммуникации, цифровую компетентность и интерактивность в гибридной образовательной среде. Результаты показывают, что гибридные модели повышают вовлеченность, мотивацию и самостоятельность мышления учащихся. Интеграция традиционных и цифровых подходов делает гибридную модель обучения высокоэффективным методом в современных системах образования.

Ключевые слова: Гибридное обучение, цифровая педагогика, синхронная и асинхронная коммуникация, цифровая компетентность, интерактивность.

Abstract: This study explores the features and effectiveness of teacher-student interaction within the framework of the hybrid teaching model. Using a mixed-methods approach, including surveys, interviews, and classroom observations with both experimental and control groups, the study investigates communication modes, digital competence, and interactivity in hybrid learning environments. Findings indicate that hybrid models enhance student engagement, motivation, and independent thinking. The





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

integration of traditional and digital approaches positions the hybrid teaching model as a highly effective method in modern education systems.

Keywords: Hybrid learning, digital pedagogy, synchronous and asynchronous communication, digital competence, interactivity.

KIRISH

So‘nggi yillarda ta‘lim sohasida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi o‘qitish tizimida qator yangiliklarni olib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Jumladan, 2022-yil 28-fevraldagi “Oliy ta‘lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ—136- sonli qaror, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida oliy ta‘lim muassasalarida raqamli pedogogika konsepsiyasini keng joriy etish belgilab qo‘yilgan. Mazkur hujjatlar zamonaviy ta‘limda raqamli ta‘limning integratsiyasini kuchaytirish, ta‘lim sifatini oshirish va o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqotni tashkillashtirish bo‘yicha zaruratni yuzaga chiqishiga sabab bo‘ldi. Xususan, pandemiya davrida butun dunyo ta‘lim tizimida bo‘lgan muammolar gibrid o‘qitish tizimini kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Gibrid ta‘lim modeli an‘anaviy (oflayn) va masofaviy (onlayn) ta‘lim shakllarining uyg‘unlashuvi sifatida ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarida keng imkoniyatlar yaratmoqda [1,2].

Raqamli pedogogika doirasida gibrid ta‘lim modeli o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro ta‘sir shakllarining samaradorligiga hissa qo‘shmoqda. Ya‘ni, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqot dars jarayonidagina emas, balki raqamli platformalar orqali darsdan tashqari paytlarda ham amalga oshmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – gibrid o‘qitish modeli doirasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning shakllari va ularning samaradorligini aniqlash hamda ularning o‘quv jarayoniga ta‘sirini tahlil qilishdan iborat bo‘ladi.

B.F.Klimova fikricha, gibrid ta‘lim faqat an‘anaviy (yuzma-yuz) va onlayn ta‘limning kombinatsiyasi emas, bu o‘quv maqsadlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o‘quv materiallarini yetkazib berishning eng yaxshi usullaridan foydalanadigan o‘qitish usullarining kombinatsiyasidir [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So‘nggi yillarda raqamli pedogogika, ayniqsa gibrid o‘qitish modeli bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda gibrid ta‘lim modeli an‘anaviy va raqamli metodlarning integratsiyasi sifatida izohlanib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikatsiyani yangi bosqichga olib chiqishi ta‘kidlanadi [4].

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, raqamli platformalarning to‘g‘ri tanlanishi, muloqotning uzluksizligi va o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi gibrid o‘quv modelining samaradorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hisoblanadi[]Shuningdek, o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasi ko'p jihatdan o'qituvchi bilan bo'ladigan interaktiv aloqalarga bog'liq ekanligi aniqlangan.

Mazkur ilmiy manbalar gibrid ta'limda o'qituvchi-o'quvchi o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish, uning shakllari va ta'lim natijalariga ta'sirini o'rganish lozimligini ko'rsatganligi bois, nazariy bilimlarga tayangan holda amaliy tahlilga yo'naltirilgan.

Tadqiqot sifatida 3-4-bosqichda ta'lim olayotgan talaba hamda o'qituvchilar ishtirok etdi va ular ikki guruhga bo'lindi.

- 1.Gibrid darslar orqali o'qitilgan eksperimental guruh,
- 2.An'anaviy darslar orqali o'qitilgan nazorat guruhi.

Tadqiqotda aralash metod (mixed methods) yondashuvi qo'llanildi.Ma'lumotlar quyidagi vositalar orqali yig'ildi:

So'rovnoma – talabalarning dars jarayonidagi ishtiroki, o'qituvchi bilan muloqot sifati va motivatsiyasi baholandi.

Intervyu – o'qituvchilarning fikrlari orqali raqamli muloqot va metodik yondashuvlar tahlil qilindi.

Kuzatuv – o'quv jarayonidagi o'zaro ta'sirning faol shakllari aniqlab borildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar:

Miqdoriy jihatdan SPSS dasturida statistik tahlil qilindi,

Sifat jihatdan esa tematik tahlil asosida guruhlab chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur model doirasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sinxron va asinxron kommunikatsiya vositalari orqali yuzaga kelgan interaktivlik, o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qilgan.Shuningdek, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda asosiy omil bo'lmoqda.

Eksperimental guruhda talabalar faolligi va motivatsiyasi yuqoriroq bo'lib, raqamli platformalar orqali ta'lim jarayonida uzluksiz va interaktiv muloqot tashkil etish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.Bundan tashqari, sinxron va asinxron ko

XULOSA

Xulosa sifatida, gibrid o'qitish modeli o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yangi darajaga ko'tarib, ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan.Raqamli va an'anaviy metodlarning sintezi ta'lim jarayonida uzluksizlik va interaktivlikni ta'minlab, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Bugungi kun davr talabalaridan biri bu – innovatsion texnologiyalardan unumli foydalangan holda yetuk mutaxassislar, ma'naviy barkamol shaxslar tayyorlash.Gibrid ta'lim modellari o'quv jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish imkonini beradi.Yana bir jihatdan, gibrid ta'lim an'anaviy "ustoz-shogird" munosabatlarini saqlagan holda, talabalarda mustaqil tafakkur, mas'uliyat hissi, dinamik taqvim asosida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.





ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-136-sonli qarori, 2022-yil 28-fevral. Manba: <https://lex.uz/docs/5887066>
2. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
Manba: <https://strategy.uz>
3. Klimova, B.F. (2021). Blended Learning as an Effective Educational Strategy.
Manba: <https://www.researchgate.net/publication/348110973>
4. Graham, C. R. (2013). Emerging practice and research in blended learning. In: Handbook of Distance Education. DOI: <https://doi.org/10.4324/9780203803738>
5. Hrastinski, S. (2008). Asynchronous and synchronous e-learning. Educause Quarterly, 31(4), 51-55.
6. Singh, H. (2003). Building effective blended learning programs. Educational Technology, 43(6), 51-54. Manba: <https://www.researchgate.net/publication/2200489>

